

2019-yil 1-oktyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatimizda 5279 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2658 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5286 ta (28,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 23757 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-oktyabr holatiga 23757 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28,6 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,1 % savdo, 15,3 % sanoat, 10,7 % qurilish, 9,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,8 % tashish va saqlash, 1,0 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 23,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.09.2019 yil	
	01.10.2018 yil	01.10.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	18471	23757	128,6	100
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1909	2342	122,7	9,9
Sanoat	2644	3643	137,8	15,3
Qurilish	1946	2545	130,8	10,7
Savdo	3956	5724	144,7	24,1
Tashish va saqlash	1175	1377	117,2	5,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1169	1836	157,1	7,7
Axborot va aloqa	218	238	109,2	1,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	492	562	114,2	2,4
Boshqa turlari	4962	5490	110,6	23,1

Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Buxoro shahri (7 571 ta), G'ijduvon (2 564 ta), Romitan (1 898 ta) va Buxoro (1 776 ta) tumanri hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (453 ta), Olot (740 ta) tumanlari, hamda Kogon shahri (880 ta) da korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 22705 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5108 ta (29,0 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,0 % savdo, 15,3 % sanoat, 10,7 % qurilish, 9,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,8 % tashish va saqlash, 1,0 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 23,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Buxoro shahri (7 323 ta), G'ijduvon (2 359 ta), Romitan (1 852 ta), Buxoro (1 664 ta) va Jondor (1 524 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (444 ta), Olot (649 ta) tumanlari hamda Kogon shahri (860 ta) da korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar *(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*


2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 5279 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo`lib, bu ko`rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2658 taga ko`pdir.

Yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda *(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Buxoro shahri (1 601 ta), G`ijduvon (595 ta), Romitan (513 ta) va Jondor (386 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (109 ta), Olot (176 ta), Kogon shahri (225 ta), hamda Qorako`l (241 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko`rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1 791 ta), sanoat (1 076 ta), qurilish (528 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (577 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (39 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (64 ta), hamda tashish va saqlash (235 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-oktyabr holatiga 19 385 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3 463 ta, oilaviy korxonalar – 1 655 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 13 918 ta va boshqalar 349 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-oktyabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 251 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 113 taga yoki 181,9 % ga o`sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog`iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to`g`ri keladi.

2019-yil 1-oktyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 251 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Buxoro shahri (136 ta), Kogon (21 ta), Kogon sh. (13 ta) va Buxoro (12 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Nisbatan kamlari Olot (4 ta), Qorako`l (6 ta) hamda Shofirkon (6 ta) tumanlariga to`g`ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 150 tasi qo'shma korxonalar, 101 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Tumandlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Buxoro viloyati	251	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Olot	4	1,6
Buxoro	12	4,8
Vobkent	7	2,8
G'ijduvon	6	2,4
Kogon	21	8,4
Qorako'l	6	2,4
Qorovulbozor	7	2,8
Peshku	14	5,6
Romitan	8	3,2
Jondor	11	4,4
Shofirkon	6	2,4
Buxoro sh.	136	54,1
Kogon sh.	13	5,2


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 96 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 52 taga ko'paygan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Buxoro shahar (52 ta yoki jamidagi ulushi 54,2%), Kogon tumani (8 ta yoki 8,3 %) va Kogon shahri (7 ta yoki 7,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Vobkent, Qorako'l tumanlari (1 tadan yoki 1,0 %), G'ijduvon, Buxoro tumanlari (2 tadan yoki 2,1 %) va Jondor, Peshku tumanlari (3 tadan yoki 3,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.


2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Turkmaniston Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 30 ta, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 15 ta, Turkiya Respublikasi - 11 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 10 ta, Koreya Respublikasi - 6 ta va Eron Islom Respublikasi – 4 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-sentyabr oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo (31 ta), sanoat (29 ta), qurilish (16 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (10 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (2 ta), hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (4 ta).

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-oktyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 19 253 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-oktyabr holatiga qaraganda 34,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 6 419 tasi (33,3 %) Buxoro shahri, 2 012 tasi (10,5 %) G'ijduvon, 1 614 tasi (8,4 %) Romitan, hamda 1 438 tasi (7,5 %) Buxoro tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jami ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 19 253 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5 414 tasi (28,1 %) - savdo, 3 439 tasi (17,9 %) - sanoat, 2 407 tasi (12,5 %) - qurilish, 2 141 tasi (11,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1 744 tasi (9,1 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1 308 tasi (6,8%) - tashish va saqlash bo'yicha xizmatlar sohasi, 217 tasi (1,1%) - axborot va aloqa sohasi, 473 tasi (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 2110 tasi (11,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 5 097 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,2 marta ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Buxoro shahri (1 532 ta), G'ijduvon tumani (583 ta), Romitan tumani (498 ta) va Jondor tumani (376 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qorovulbozor tumani (107 ta), Olot tumani (172 ta), Kogon tumani (215 ta), Kogon shahar (223 ta) tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1 791 ta), sanoatda (1074 ta), Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (576 ta) va qurilishda (528 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (39 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (61 ta), hamda tashish va saqlashda (235 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-oktyabr holatiga 1 730 tani tashkil etib, ulardan 1 655 tasi yoki 95,7 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 84,8 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 28,0 % yoki 464 tasi sanoat, 31,4 % yoki 520 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 20,1 % yoki 333 tasi savdo, 8,9 % yoki 147 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 16 tasi tashish va saqlash, 1,9 % yoki 31 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1 % yoki 15 tasi qurilish, 0,5 % yoki 9 tasi axborot va aloqa hamda 7,2 % yoki 120 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Buxoro viloyati	746	100
Olot	34	4,6
Buxoro t.	38	5,1
Vobkent	65	8,7
G'ijduvon	134	18,0
Kogon t.	34	4,6
Qorako'l	43	5,8
Qorovulbozor	9	1,2
Peshku	35	4,7
Romitan	46	6,1
Jondor	42	5,6
Shofirkon	75	10,0
Buxoro sh.	148	19,9
Kogon sh.	43	5,7

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 746 taga yaqin oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,9 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Buxoro sh. (148 ta), G'ijduvon (134 ta), Shofirkon (75 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qorovulbozor (9 ta), Olot (34 ta), Kogon (34 ta) hamda Peshku (35 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 28,8 % yoki 215 tasi sanoat, 26,7 % yoki 199 tasi savdo, 29,5 % yoki 220 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 5,2 % yoki 39 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,4 % yoki 3 tasi qurilish, 1,1 % yoki 8 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 3 tasi axborot va aloqa hamda 7,0 % yoki 52 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Buxoro viloyati
Statistik registrlarni yuritish
Tel.:71-230-83-20 (21)